

BOSHLANG'ANCHI SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Karimova Sevara Shaxriddin qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti "Pedagogika, psixologiya va sport" kafedrası o'qituvchisi.

+998971235191 sevarakarimovaa141@gmail.com

Xojiyeva Muslima Ravshanbek qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs.

+998882242119 muslimaxojiyevaa232@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14216303>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama intellektual rivojlantirishning muhim masalalari, "intellekt" va "tafakkur" tushunchalarining uyg'un va mushtarakligi haqida ma'lumotlar yoritilgan. Boshlang'ich sinf dasturlaridagi barcha fanlarining o'quvchilarida shaxs kamoloti elementlarini tarbiyalashdagi ahamiyati va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish xususida fikr boradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, intellekt, xotira, qobiliyat, intellektual, falsafa, tafakkur, ijtimoiy-psixologik, iqtidor.

DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article covers important issues of comprehensive intellectual development of elementary school students, information about the harmony and commonality of the concepts of "intellect" and "thinking". The importance of the elements of personality development and the development of intellectual abilities in students of all subjects in primary school programs is considered.

Key words: Primary education, intellect, memory, ability, intellectual, philosophy, thinking, socio-psychological, talent.

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье освещены важные вопросы всестороннего интеллектуального развития учащихся младших классов, информация о гармонии и общности понятий «интеллект» и «мышление». Рассмотрена важность элементов развития личности и развития интеллектуальных способностей у учащихся всех предметов в программах начальной школы.

Ключевые слова: Начальное образование, интеллект, память, способности,

интеллектуальные, философия, мышление, социально-психологические, талант.

*“O‘zini kamol toptira olmagan inson o‘zgalar kamolotini ta’minlay
olmaydi”. Konfutsiy*

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda turli yondoshuvlar taklif etilib, amaliyotga tadbqiq etilmoqda. Ta’lim jarayoniga zamonaviy yondoshuvlardan biri-kreativ yondoshuv hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, maktab amaliyotida ijod, ijodkorlik kabi terminlar ko’p ishlatilib kelinadi. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda quyidagicha ta’riflanadi. “Ijod – intellektning motivatsion struktura orqali singdirilgan mahsuli. Bu struktura uning namoyon bo’lishini sekinlatadi, yoki rag’batlantiradi”. Shaxsning ijodiy ifodalari “tadqiqoti birligi” sifatida ruhshunos aqliy qobiliyatlar va shaxsiy omillarni birlashtiruvchi intellektual faollikni ko’radi.

Intellektual faollik va ijod tipologiyasi muammosini o’rganar ekanmiz, intellektual faollik darajalari va ularning ijod bilan mutanosibligi masalasida optimal va argumentlangan pozitsiyasidan iboratligini ko’ramiz. Dunyodagi pedagogik sohasida tadqiqot olib borilgan olimlarimizning fikricha 7-8 yoshli bola odatda ma’lum toifalarda o’ylaydi. Keyinchalik, umumlashtirish va mavhumlash qobiliyatining ma’lum darajada rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan rasmiy operatsiyalar bosqichiga o’tish sodir bo’ladi. Maktab o’quvchilari 5-sinfga kirgunga qadar mustaqil fikr yuritishni, xulosa chiqarishni, solishtirishni, tahlil qilishni, xususiy va umumiyini topishni, qonuniyatlarni o’rnatishni o’rganishlari kerak. Ammo bu xolat ko’pincha kuzatilmaydi.

Chunki bolalar umumlashtirish, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi amallarni qiyin deb bilishadi. Shu munosabat bilan bolalarda fanga va turli hodisalarni o’rganishga qiziqishlari yo’qoladi. Yangi narsalarni passiv idrok etish va o’zlashtirish mustaxkam bilimning asosi bo’la olmaydi.

Ta’lim sifati bo’yicha ko’zga ko’ringan va jaxon standartlariga mos keladigan davlatlardan biri Fransiya Respublikasining boshlang’ich ta’lim tizmini misol qilib oladigan bo’lsak Fransuz bolalari maktabga olti yoshdan boshlashlari shart. Ushbu maktab darajasida o’qish muddati 5 yil. Birinchi yil moslashish yili, keyingi ikki bola boshlang’ich sinflarga, keyin esa o’rta sinflarga boradi. Fransiyadagi boshlang’ich maktablarda o’quv materialini bosqichma-bosqich murakkablashtirish va o’quvchilarni yangi sharoit va o’quv vazifalariga muammosiz moslashtirish tamoyili shunday ishlaydi. Fransiyadagi ushbu jadvalga muvofiq ishlaydigan kichik maktablarda shanba ham maktab kuni, ammo darslar faqat kunning birinchi yarmida o’tkaziladi.

Ish kunlarida bolalar soat 9:00 dan 17:00 gacha maktabda bo’lishadi, ammo sinflar 12:00 dan 14:00 gacha ikki soatlik tanaffusga ega bo’lib, ular toza havoda dam olishlari va do’stlari

bilan o'ynashlari mumkin. Boshlang'ich - 6 yoshdan 11 yoshgacha - 5 yil davomida boshlang'ich maktabda o'qish. Bu vaqt davomida bolalar klassik maktab fanlari asoslarini o'rganadilar va kundalik ishlarini aniq rejalashtirishga o'rganadilar. Boshlang'ich maktab o'quvchisining ertalabi (L'école élémentaire) kutubxonaga sayohat bilan boshlanadi. Darsga 15 daqiqa qolganda bolalar o'qigan kitoblarni yangilariga almashish uchun navbatga turishadi.

Barcha kutubxona kitoblari rang-barang stikerlar bilan belgilangan va 12 blokga bo'lingan. Misol uchun, pushti stikerlar bilan belgilangan kitoblar o'qishni endi o'rganganlar uchundir. Va eng qiyin darajadagi kitoblar chiziqli stikerlar bilan belgilanadi. Bu o'qituvchiga o'quvchining qaysi darajada ekanligini oson tushunish imkonini beradi.

Hozirgi kunda bilimli, zamonaviy, mustaqil fikirlaydigan, intellektual rivojlangan, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lgan yoshlarga mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkin.

Intellekt (lotincha: intellects – bilish, tushinish, idrok qilish) insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotira, fikr yuritish, so'zlash.

Intellektual faollikning uch sifat darajasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: rag'batli-unumli; evristik; kreativ. Shu bilan birga birinchi daraja "umumiy iste'dod" tushunchasiga mos keladi. Ikkinchi daraja – evristik, qachonki inson yetarlicha ishonchli yechim usuliga ega bo'lgani holda, "o'z faoliyatining tarkibi, strukturasini tahlil qilishda davom etadi, alohida vazifalarni o'zaro solishtiradi. Bu esa yangi, original, tashqi ko'rinishdan ancha aqlli yechim usullarini kashf etishga olib keladi".

Intellektual faollikning eng yuqori darajasi kreativ daraja sanaladi. Ushbu darajada inson tomonidan aniqlangan qonuniyat formal usul emas, balki mustaqil muammoga aylanadi. Mazkur pozitsiyaga qo'shilgan holda, biz bir faktni tan olamizki, ijodning prinsipial jihatdan ikki xil darajasiga ikki turdagi tafakkur – empirik va nazariy mos keladi. Intellektual faollik darajalarining ushbu tasnifiga ijod tipologiyasi ham asoslanadi. Rag'batli unumli darajada insonlar qat'iy farazlar va original kashfiyotlarga qodir.

Ikkinchi daraja – evristik – empirik yo'l bilan yangi qonuniyatlarni kashf etishga mos keladi, kreativ daraja esa nazariy kashfiyotlar bilan mutanosiblik kasb etadi. Kreativlik o'zida integrativ shaxs sifatini namoyon etadi degan fikrni asos qilib olar ekanmiz, kreativlikning tarkibiy qismlarini tahlil qilib chiqamiz.

Bugungi kunda yurtimizda "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" g'oyasi asosida maktab ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual fikirlashini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish kerak.

Shuni yodda tutish lozimki, mantiqiy fikirlashning rivojlanishi jarayonini har tomonlama va tizimli ravishda amalga oshirish kerak. Bunday ishlarni nafaqat sinfda, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham bajarsa bo'ladi. Faoliyatning ushbu turida o'qituvchilarning asosiy vazifasi yosh bolalar uchun qulay va maqbul bo'lgan turli shakl va usullarni malakali tanlashdir.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushishi va bu tushkunlik sababli fikrlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. Hozirgi kunda ko'plab zamonaviy dars berish metodlari mavjud. Bu metodlar orasida "interaktiv" metodini eng ko'p qo'llaniladigan va samarali najjalar ko'rsata olga metod deb ta'kidlashimiz mumkin. Chunki bu metod orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlariga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro tasirlashish" manosi bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro bahs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslari orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari boshqa o'quv predmetlariga nisbatan kengroqdir. Sababi, biz matematika darsidan oddiygina bir masala yechimini topish orqali ham fanlararo integratsiyani amalga oshiramiz, ham o'quvchini

kengroq nazariy bilimni amaliy hayotga bog'lab o'rganishlariga yordam beramiz va matematika darslarida o'quvchilar o'zi yashayotgan hayotdagi bo'layotgan o'zgarishlardan ham o'z o'rnida xabardor bo'ladilar.

Aqliy rivojlanish nazariyasi mualliflari intellektual o'quvlar shakllanishining quyidagi bosqichlarini ajratishadi:

- 1) o'quvlarni qo'llash tajribasini aniqlash bilan tavsiflanuvchi bosqich;
- 2) tashxislash bosqichi, bunda o'quvlarining shakllanganlik darajalari aniqlandi;
- 3) motivatsiya bosqichi;
- 4) uslubdan foydalanish algoritmini anglash bosqichi;
- 5) bevosita qo'llash hamda boshqa predmetlar bilan taqqoslash bosqichi.

Maktab o'quvchilarini tafakkur sa'y-harakatlariga o'rgatishda ikkita faoliyatli o'qitish nazariyasi keng qo'llanishga ega bo'ldi: birinchi maktab vakillari intellektual operatsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqishdi. Bu nazariyaning bosh g'oyasi quyidagicha: bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar tomonidan faqat ma'lum sa'y-harakatlar tizimi bajarilishi natijasida sodir bo'ladi. Harakat o'zi ustida bajarilayotgan predmet bilan funksional bog'langan, o'z ichiga mazkur predmetni o'zgartirish maqsadini va bunday o'zgartirish vositasini oladi. Bularning hammasi birgalikda shakllantirilayotgan harakatning ijro qismini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun ta'limga yangicha yondashuv, innovatsion ta'lim texnologiyalari ko'proq ta'lim oluvchilar faolligiga asoslanishi, ularda mustaqil o'rganish ehtiyoji va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'nalgan bo'lishi lozim. O'qituvchi bilim uzatuvchi roldan ta'lim oluvchilarning faol o'rganish jarayonini tashkil qiluvchi, ularning o'qish motivatsiyalarini va faoliyatini boshqaruvchi, ulardagi mavjud bilish, erkin fikrlash, ijod qilish, yangilik yaratish ehtiyojlarini psixologik va pedagogik jihatdan oqilona qo'llab- quvvatlab, rivojlantiruvchi roliga o'tishi zarur. Innovatsion jarayonning har bir bosqichida bu jarayon qatnashchilari quyidagi uchta yo'nalishda ish olib borishlari zarur: moddiy-texnik; tashkiliy; ijtimoiy- psixologik. Har qanday yangilik kiritilishi, shu jumladan, pedagogik texnologiya joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi, unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda

1. Nostandart masalalar
2. Mantiqiy masalalar
3. Muammoli vaziyatlarga keltiruvchi masala turlaridan kengroq foydalansak o'z maqsadimizga erishamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim qismidir.

O'qituvchining yordami bilan o'quvchilar fikirlashini, asosiy narsani ajratib ko'rsatishni, turli faktlar va nuqtai nazarlarni taxlil qilishni, ularni taqqoslashni va solishtirishni, savol berishni va mustaqil ravishda ularga javob izlashga harakat qilishni o'rganish kerak.

O'quvchi shaxsning rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyati zarurdir. O'quvchi yoshlarga bilim olishlari uchun sharoitlar yaratib berishimiz lozim, shundan so'ng yurtimizda yangi ixtirolar, innovatsiyalar paydo bo'ladi.

Xulosa. Biz kichik maktab o'quvchilarining xotirasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishini bilvosita yodlashni shakllantirish, ya'ni yodlash uchun yordamchi vositalardan, shu jumladan belgilar va belgilardan foydalanish deb bilaman. Buning uchun yodlangan narsalarni qismlarga bo'lish, ulardagi turli xil xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, ularning har biri va an'anaviy belgilarning ma'lum bir tizimi o'rtasida ma'lum aloqa va munosabatlarni o'rnatish qobiliyati talab etiladi. fikrlashni rivojlantirish uchun men quyidagi mashqlardan foydalanaman: "qo'shimcha ob'ekt", "guruhlariga bo'linish" vahokazolar. Og'zaki- mantiqiy fikrlashning muhim xususiyatlaridan biri tushunchalarning ishlashidir. Og'zaki-mantiqiy fikrlashni rivojlantirish aqliy operatsiyalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi: tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish va boshqalar. Taqqoslash operatsiyalarini ishlab chiqish uchun biz o'xshash narsalarni (pashsha va kapalak; stol va stul) solishtirish zarur bo'lgan vazifalardan foydalanaman. ; kitob va daftar; suv va sut va hokazo.) va o'xshashlik va farq belgilarini aytishlarini so'rayman. Biz o'quv va kognitiv faoliyat va intellektual taranglik jarayoniga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirishni asosiy vazifalardan biri deb bilaman.

O'quv jarayonida ijobiy his-tuyg'ular paydo bo'lishini ta'minlashga harakat qilaman.

Bunda shaxsning chuqur ichki kechinmalari kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira, yodlash, tushunish) bilan bog'lanib, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini samaraliroq qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategisi to'g'risida"gi PF4947 son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017, 6- son, 70-modda.
2. Nurmatova Sh.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish: Mag. Diss. Toshkent 2014.
3. Adizov B. "Boshlang'ich talimni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" Toshkent. 2002-yil.
4. Shahriddinovna, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students.*Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*,19, 183-187.
5. Shahriddinovna, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD.*American Journal of Applied Science and Technology*,3(06), 09-14.
6. Shahriddinovna K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of

- Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 19. – C. 183-187.
7. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 09-14.
 8. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
 9. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.
 10. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.
 11. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
 12. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
 13. Mamatova H., Karimova, S., & Mamayusupova, Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
 14. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 40-44.
 15. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>
 16. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 5-8.
 17. Sevara, K., & Maftuna, S. (2024, February). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI

DARSLARIGA QO ‘YILGAN ZAMONAVIY TALABLARNING XUSUSIYATI VA AHAMIYAT. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 65-67).

18. Sevara, K., & Mahliyo, X. (2024, February). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 68-70).
19. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
20. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
21. Turaboeva, S. (2022). ОЛАМНИНГ ЛИСОНИЙ МАНЗАРАСИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ. *Science and innovation*, 1(B8), 1516-1523.
22. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTUROLOGICAL UNITS IN THE LANGUAGE PICTURE OF THE WORLD. *Science and Innovation*, 1(8), 1516-1523.
23. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTURAL UNITS IN THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD. *Science and Innovation*, 1(8), 1194-1201.